


Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 803,4 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 115,4 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,84 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 71,8 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 4,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 16,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarini utilizatsiya qilishda – 22,3 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 mldr. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,029 % ini tashkil etdi. 2021 - yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 762,0 mldr. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,841 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 42,5 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 27,6 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 14,9 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 42,5 %.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 27,6%.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -14,9%.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar oyida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,395 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 83,1 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,735 %) ni tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash – 67,8 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 30,5 % tashkil etdi.






Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar	2020 - yil yanvar	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	7,1	17,6	-10,5
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	15,8	13,0	2,8
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:	4335,0	3989,0	346
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	670,0	311,0	359
Aroq – ming litr:	-	55,2	-55,2
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:	-	0,4	-0,4
Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	-	14,0	-14,0
Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:	7342,5	7257,4	85,1
Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:	1795,0	-	1795,0
Xo‘jalik sovuni – tonna:	421,0	635,5	-214,5
Paxta tolasi – tonna:	3541,5	7170,9	-3629,4
Paxta chigit – tonna:	7756,9	11614,2	-3857,3

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 10,5 mln. kVts ga, aroq 55,2 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 0,4 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 14,0 ming litrga, xo‘jalik sovuni 214,5 tonnaga, paxta tolasi 3629,4 tonnaga, paxta chigit 3857,3 tonnaga kamaygan.

Maxsus issiqlik energiyasi, yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz), yengil avtomobillar, tozalangan o‘simlik yog‘i, yumshoq bug‘doy va spelta uni sezilarli darajada oshgan.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2020 - yil yanvar oyida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 4,2 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 - yil yanvar oyida bu ko‘rsatkich 3,4 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarish 46,9 % dan 46,6 % ga va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,03 % dan 0,02 % ga kamaygan bo‘lsa, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning 42,3 % dan 44,9 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,2 mlrd. so‘mlik (2020 - yil yanvar oyida 0,2 mlrd. so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 360,4 mlrd. so‘mlik (267,2 mlrd. so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 26,9 mlrd. so‘mlik (26,7 mlrd. so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 374,5 mlrd. so‘mlik (296,3 mlrd. so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2021 - yil yanvar mlrd. so 'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	803,4	115,4
Urganch shahri	157,9	122,5
Xiva shahri	6,7	81,4
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog'ot tumani	23,3	85,0
Gurlan tumani	34,9	103,6
Qo'shko'pir tumani	30,2	100,1
Urganch tumani	18,9	101,7
Hazorasp tumani	37,8	112,5
Tuproqqa'l'a tumani*	348,4	112,3
Xonqa tumani	47,6	115,0
Xiva tumani	21,0	177,5
Shovot tumani	29,5	94,1
Yangiariq tumani	18,6	64,7
Yangibozor tumani	28,6	113,8


Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Tuproqqa'l'a tumani, Urganch shahri, Gurlan, Qo'shko'pir, Yangibozor, Xiva, Hazorasp, Xonqa va Urganch tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatlari yuqori darajada rivojlangan.

***Tuproqqa'l'a tumani – 2020 - yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.**




Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasi-da, 2020 - yil yanvarga nisbatan Xiva tumanida 177,5 %, Hazorasp tumanida 112,5 %, Yangibozor tumanida 113,8 %, Urganch tumanida 101,7 %, Qo'shko'pir tumanida 100,1 %, Tuproqqa'l'a tumanida 112,3 %, Gurlan tumanida 103,6 %, Urganch shaxri 122,5 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI
2020 - YIL YANVAR OYIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,4 %), Urganch shahri (19,7 %), Xonqa (5,9 %), Hazorasp (4,7 %) hamda Gurlan (4,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva shahri (0,8 %) va Yangiariq tumaniga (2,3 %) to'g'ri kelmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari:

**2021 - yil
yanvar**

**2020 - yil
yanvar**

Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	803,4	631,8
---	--------------	--------------

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,2	0,2
---	------------	------------

ulardan:

Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,2	0,2
---	------------	------------

Qayta ishslash faoliyati	762,0	590,4
---------------------------------	--------------	--------------

undan:

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	119,4	86,0
---	--------------	-------------

Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	14,4	19,1
--	-------------	-------------

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	221,5	175,3
--	--------------	--------------

Kiyim ishlab chiqarish	4,8	2,2
-------------------------------	------------	------------

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	0,5	0,6
---	------------	------------

Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materillallari, ishlab chiqarish	0,7	0,4
--	------------	------------

Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	2,6	1,6
---	------------	------------

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,1	0,1
--	------------	------------


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar	2020 - yil yanvar
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,08	0,08
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	1,9	1,1
Asosiy farmasevtika	0,1	0,1
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	2,8	3,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	14,1	12,5
Metallurgiya sanoati	0,9	0,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	8,0	9,1
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,03	0,03
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	1,4	2,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	15,4	1,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	341,1	262,3
Mebel ishlab chiqarish	1,9	2,5
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	8,6	8,6
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	1,1	1,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	35,3	36,2
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	5,9	5,0




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 459,9 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar oyriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil etdi.

2021 - yil yanvar



2020 - yil yanvar



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 112,7 mlrd. so'mni va 347,2 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar oyiga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 107,6 % va 107,4 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 57,2 % ni (2020 - yil yanvar oyida 68,0 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 23,5 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 293,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 29,9 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o’sish sur’ati
(2021 - yilning yanvar oyida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar oyiga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	459,9	100,0	107,0
Urganch shahri	58,7	12,8	121,7
Xiva shahri	5,8	1,3	100,3
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	9,6	2,1	80,6
Gurlan tumani	13,8	3,0	128,2
Qo‘shko‘pir tumani	6,4	1,4	108,1
Urganch tumani	14,4	3,1	93,1
Hazorasp tumani	6,8	1,5	78,3
Tuproqqa'l'a tumani	296,6	64,5	107,7
Xonqa tumani	19,9	4,3	102,7
Xiva tumani	6,4	1,4	109,1
Shovot tumani	9,9	2,1	92,6
Yangiariq tumani	5,5	1,2	99,0
Yangibozor tumani	6,1	1,3	98,4

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to‘g‘ri kelib - 64,5 % ni, shuningdek, Urganch shahrida 12,8 % ni, Xonqa tumanida 4,3 % ni, Urganch tumanida 3,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (107,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Gurlan tumanida (128,2 %), Urganch shahrida (121,7 %), Xiva tumanida (109,1 %), Qo'shko'pir tumanida (108,1 %), Tuproqqa'l'a tumanida (107,7 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 - yilning yanvar oyida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar oyiga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	112,7	100,0	107,6
Urganch shahri	40,4	35,8	149,5
Xiva shahri	3,8	3,4	99,0
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	7,0	6,2	75,2
Gurlan tumani	7,6	6,7	96,1
Qo'shko'pir tumani	3,9	3,5	106,9
Urganch tumani	9,3	8,3	81,4
Hazorasp tumani	4,8	4,2	96,5
Tuproqqa'l'a tumani	1,9	1,7	93,2
Xonqa tumani	14,5	12,8	103,1
Xiva tumani	4,4	3,9	108,9
Shovot tumani	7,2	6,4	86,3
Yangiariq tumani	3,8	3,4	98,8
Yangibozor tumani	4,1	3,7	96,3

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib - 35,8 % , shuningdek, Xonqa tumanida 12,8 %, Urganch tumanida 8,3 %, Gurlan tumanida 6,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Urganch shahrida (149,5 %), Xiva tumanida (108,9 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**
(2021 - yilning yanvar oyida)

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar nisbatan, % da
Xorazm viloyati	347,2	100,0	107,4
Urganch shahri	18,4	5,3	94,1
Xiva shahri	2,0	0,6	102,8
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	2,6	0,7	99,4
Gurlan tumani	6,2	1,8	216,5
Qo‘shko‘pir tumani	2,5	0,7	109,9
Urganch tumani	5,1	1,5	125,9
Hazorasp tumani	2,0	0,6	54,3
Tuproqqal'a tumani	294,7	84,9	107,8
Xonqa tumani	5,4	1,5	101,5
Xiva tumani	2,0	0,6	109,5
Shovot tumani	2,7	0,8	114,7
Yangiariq tumani	1,7	0,5	99,6
Yangibozor tumani	1,9	0,5	103,1

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi (84,9 %), shuningdek, Urganch shahrida 5,3 % ni, Gurlan tumanida 1,8 % ni, Xonqa tumanida 1,5 % ni va Urganch tumanida 1,5 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (107,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Gurlan tumani (216,5 %), Urganch tumani (125,9 %), Shovot tumani (114,7 %), Qo'shko'pir tumani (109,9 %), Xiva tumani (109,5 %) tashkil qildi.



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2020 - yil yanvar oyiga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar oyiga nisbatan Gurlan tumanida (128,2 %) Urganch shahrida (121,7 %), Xiva tumanida (109,1 %), Qo'shko'pir tumani (108,1 %), Tuproqqa'l'a tumanida (107,7 %), Xonqa tumanida (102,7 %), Xiva shahrida (100,3 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Hazorasp tumanida (78,3 %), Bog'ot tumanida (80,6 %), Shovot tumanida (92,6 %), Urganch tumanida (93,1 %), Yangibozor tumanida (98,4 %), Yangiariq tumanida (99,0 %) kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2021 - yil yanvar oyida, ming so‘m)**


Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2020 - yil yanvar oyiga nisbatan, % da	Iste’mol mahsulotlari	2020 - yil yanvar oyiga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	427,4	113,6	244,7	105,4
Urganch sh.	1093,9	121,1	407,0	120,3
Xiva sh.	72,3	80,3	62,2	98,9
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	141,3	83,5	58,2	79,2
Gurlan	234,8	102,2	92,6	126,5
Qo‘siko‘pir	174,9	98,6	36,9	106,5
Urganch	94,9	99,8	72,5	91,4
Hazorasp	194,5	142,3	35,0	99,1
Tuproqqał'a	6289,4		5355,6	
Xonqa	254,9	113,3	106,3	101,1
Xiva	143,6	174,5	43,9	107,2
Shovot	173,3	92,7	57,8	91,2
Yangiariq	159,6	63,7	47,7	97,5
Yangibozor	327,1	112,2	69,2	97,0

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 427,4 ming so‘mmi tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 113,6 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yil yanvar oyida Urganch shahrida 995,2 ming so‘mdan 1093,9 ming so‘mga, Bog‘ot tumanida 134,0 ming so‘mdan 141,3 ming so‘mga, Xonqa tumanida 154,5 ming

so‘mdan 254,9 ming so‘mga, Xiva tumanida 77,1 ming so‘mdan 143,6 ming so‘mga va Yangibozor tumanida 204,2 ming so‘mdan 327,1 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (6289,4 ming so‘m), Urganch shahrida (1093,9 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (427,4 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.

Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo‘yicha 244,7 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,4 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar oyida Urganch shahrida 369,0 ming so‘mdan 2021 - yil yanvar oyida 407,0 ming so‘mga, Gurlan tumanida 83,6 ming so‘mdan 92,6 ming so‘mga, Qo’shko’pir tumanida 29,7 ming so‘mdan 36,9 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 47,5 ming so‘mdan 47,7 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021 - yil yanvar oyida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Qo’shko’pir tumani (100 %), Gurlan tumani (100 %), Yangiariq tumani (100 %), Bog‘ot tumani (79,4 %), Urganch tumani (76,4 %) hissasiga to’g’ri kelgan.

Viloyatda yanvar oylarida kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan 229,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish

hajmidagi ulushi 28,6 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili Tuproqqa'l'a tumani (2,1 %), Yangibozor tumani (19,5 %), Urganch shahri (27,2 %), Xonqa tumanida (27,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 108,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 13,5 % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi boʻlimi
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99